

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

LILİYALAR O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA TASHQI MUHIT OMILLARNING TA’SIRI

Z.H.Nasimova. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti doktoranti

Y.Sh.Tashpulatov. Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti dotsenti

zaynabnasimova28@gmail.com, yigitali_t1981@mail.ru

Annotatsiya. O‘simliklar uchun zarur bo‘lgan ekologik omillarsiz ular hayot kechira olmaydi, o‘smaydi va rivojlanmaydi. Bu xildagi omillarga yorug‘lik, harorat, suv, nisbiy namlik va tuproq tarkibi kiradi. Maqolada Samarqand viloyatiga introduksiya qilingan liliya turlari va navlarining o‘shish va rivojlanishiga tashqi muhit omillarning ta’siri haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z. Introduksiya, bioekologiya, psixrometr, duragay, entomofil.

Аннотация: Без необходимых для растений факторов внешней среды они являются жизнью не переносит, не растет и не развивается. К таким факторам относятся свет, температура, вода, относительная влажность, состав почвы. В статье описано влияние внешних факторов среды на рост и развитие интродуцированных в Самаркандскую область видов и сортов лилий. информация предоставлена.

Ключевое слово. Интродукция, биоэкология, психрометр, гибрид, энтомофил.

Abstract. Without the environmental factors necessary for plants, they are life does not tolerate, does not grow and does not develop. Such factors include light, temperature, water, relative humidity, soil composition. The article describes the influence of external environmental factors on the growth and development of species and varieties of lilies introduced into the Samarkand region. information provided.

Keyword. Introduction, bioecology, psychrometer, hybrid, entomophile.

Yuqori sifatli gul mahsulotlarini olish uchun piyozlarning yaxshi ildiz otishini ta’minlash uchun, pastroq haroratni (10°C dan 15°C gacha) saqlash. Ekishdan so‘ng (hech bo‘lmaganda ildiz paydo bo‘lguncha) piyozlarning haroratini ikki-uch hafta davomida kamaytirish tavsiya etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, agar boshlang‘ich harorat pasaytirilsa (kultivatsiya boshida) yuqori sifatli o‘simlik olish imkonini beradi. Dastlabki harorat 15°C dan yuqori bo‘lsa, harorat o‘simlik sifatining yomonlashishiga olib keladi. Belgilangan harorat rejimini saqlash bahor va kuz fasllarida energiyani tejash imkonini beradi. Liliya gullarining ochilish ritmi bo‘yicha entomofil hisoblanadi. Chunki gullarning sutka davomida ochilish vaqti, changlantiruvchi hashoratlarning yozgi faollik dinamikasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ikkala holatda ham tartibga soluvchi (hal etuvchi) omillar sifatida harorat va yorug‘lik asosiy o‘rinni egallaydi. Gullari kunduzi ochiladigan o‘simliklar tipiga xosdir (1-rasm).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.



1-rasm. Havoning fizik xossalarini psixrometr asbobi yordamida kuzatish

Bizning tadqiqot obyektimiz 3 xil guruhga mansub bo'lgan duragay liliyalar bular Oriental, OT va Osiyo duragaylardir. Bizni qiziqtirgan Oriental, OT, Osiyo duragaylarining o'sishi va rivojlanishini kuzatib, biz fenologik fazalarning boshlanish vaqti va davomiyligi mavsumning ob-havo sharoitlariga bog'liqligini va yildan-yilga o'zgarishi mumkinligini aniqladik. Samarqand viloyati sharoitida liliya navlari, qoida tariqasida, mart oyining birinchi o'n kunligida o'sishni boshlaydilar, ammo erta bahorda bo'lgan yillarda ularning vegetatsiya davri aprel oyining o'rtalarida kuzatiladi. Niholdan gullashgacha bo'lgan davr 50 dan 90 kungacha. Gullash vaqtiga ko'ra erta, o'rta va kech navlar bilan farqlanadi. Erta gullovchi navlar (*Corsage, Orange Ton, Pearl White, Netty's Pride, Novana, Purple Dream, Yellow Bruse*) aprel oyining oxiri may oyining boshida, qayta o'sishdan 50-59 kun o'tgach gullaydi. May oyining ikkinchi o'n kunligida, vegetatsiya davrining 60-77 kundan so'ng, o'rtacha gullash davri navlari gullashni boshlaydi ("*Lovan, Montego Bay, Honeymon, Yellow Bruse*"). Bog' kolleksiyasidagi Oriental duragaylarining ko'p navlari aynan shu gullash davriga to'g'ri keladi. Iyul oyining uchinchi o'n kunligida, qayta o'sib chiqqandan 80-90 kun o'tgach, gullar kech gullash davridagi Oriental Hybrid duragaylari deyarli hammasi va OT ba'zilar ochiladi (*Orange Ton, Siberia, Josphine, Stargazer*).

Eng uzoq muddat gullaydigan va ko'p gul hosil qiladigan guruh bu havo harorati va quyoshga bo'lgan talabiga ko'ra Osiyo duragaylari gullar soni o'rtacha 7 dona bo'lib, gullar ochilish muddati (16-19) kuni tashkil etadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Баранова М.В Лилии Л ;Изд –Агропромиздат, 1990 –Г С 112
- 2.Nasimova Z.H, Tashpulatov Y.Sh. Liliya “Lovan” navining turli o’stirish sharoitlarida biomorfolik xususiyatlari va gullash biologiyasi. Mirzo Ulug’bek nomidagi Ilmiy Jurnal Toshkent-2023-y 145-bet.
3. Nasimova Z.H, Muqumov I.O, Tashpulatov Y.Sh. Liliium *L.* turkumi ayrim manzarali turlari urug’larining morfologik xususiyatlari va unuvchanligi. Oziq-ovqat xavfsizligi “Milliy va global muammolar” Ilmiy Jurnal (№ 2023/3)65-68 bet.
4. Nasimova Z, Mukumov I.I., Tashpulatov Y.Sh. Anti-Ecology of the “Lavon” Lily Variety in Different Growing Conditions of the Samarkand Region, Uzbekistan // American Journal of Plant Sciences, 2023, 14, 968-975